

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdusalil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O‘QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O‘SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o‘g‘li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Saidaxmedova Aida Mirzayevna

TDIU “Bank ishi” kafedrasida katta o‘qituvchisi
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida aksiyadorlik tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari kompleks tarzda tahlil qilingan. Bank tizimida korporativ boshqaruvning samaradorligi ularning moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi hamda kreditlash salohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot doirasida aksiyadorlik tijorat banklarida raqamli muhitda korporativ boshqaruvni tashkil etish bilan bog‘liq dolzarb muammolar, jumladan, aksiyadorlar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi munosabatlarda shaffoflikning yetarli darajada ta‘minlanmasligi, raqamli likvidlik va risklarni boshqarishdagi murakkabliklar, global moliyaviy bozorlardagi o‘zgaruvchanlik hamda foiz siyosatiga texnologik omillarning ta‘siri atroflicha yoritilgan. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, xususan, boshqaruv jarayonlarida ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish, risk-menejment tizimini takomillashtirish hamda aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida moliyaviy savodxonlikni oshirish, boshqaruv jarayonlariga fintex yechimlarini integratsiya qilish, innovatsion raqamli mahsulotlar — mobil banking, blokcheyn texnologiyalari va sun‘iy intellekt asosidagi qaror qabul qilish tizimlarini joriy etish muhim yo‘nalishlar sifatida tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, resurs bazasi, moliyaviy barqarorlik, depozitlar, likvidlik, foiz stavkalari, kreditlash, xalqaro moliyaviy bozorlar, bank tizimi.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of issues related to improving corporate governance systems in joint-stock commercial banks based on international standards in the context of digital transformation. The effectiveness of corporate governance in the banking system is one of the key factors determining their financial stability, investment attractiveness, and lending capacity. Within the framework of the study, current challenges in organizing corporate governance in joint-stock commercial banks in the digital environment are examined in detail. These include the insufficient level of transparency in relationships between shareholders and management bodies, difficulties in managing digital liquidity and risks, volatility in global financial markets, as well as the impact of technological factors on interest rate policies. To address the identified problems, the necessity of developing corporate governance based on international standards is substantiated. In particular, emphasis is placed on enhancing transparency and accountability in management processes, improving risk management systems, and strengthening mechanisms for protecting shareholders' interests. Moreover, in the context of digital transformation, priority areas include increasing financial literacy, integrating fintech solutions into management processes, and implementing innovative digital products such as mobile banking, blockchain technologies, and artificial intelligence-based decision-making systems.

Keywords: commercial banks, resource base, financial stability, deposits, interest rate liquidity, lending, international financial markets, banking system.

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы вопросы совершенствования системы корпоративного управления в акционерных коммерческих банках на основе международных стандартов в условиях цифровой трансформации. Эффективность корпоративного управления в банковской системе является одним из ключевых факторов, определяющих их финансовую устойчивость, инвестиционную привлекательность и кредитный потенциал. В рамках исследования подробно рассмотрены актуальные проблемы организации корпоративного управления в акционерных коммерческих банках в цифровой среде, в частности, недостаточный уровень прозрачности во взаимоотношениях между акционерами и органами управления, сложности в управлении цифровой ликвидностью и рисками, волатильность глобальных финансовых рынков, а также влияние технологических факторов на процентную политику. В целях решения выявленных проблем обоснована необходимость развития корпоративного управления на основе международных стандартов, в частности, усиления открытости и подотчётности в управленческих процессах, совершенствования системы риск-менеджмента, а также укрепления механизмов защиты интересов акционеров. Кроме того, в условиях цифровой трансформации в качестве приоритетных направлений рекомендованы повышение уровня финансовой грамотности, интеграция финтех-решений в процессы управления, а также внедрение инновационных цифровых продуктов — мобильного банкинга, технологий блокчейн и систем принятия решений на основе искусственного интеллекта.

Ключевые слова: коммерческие банки, ресурсная база, финансовая стабильность, депозиты, ликвидность процентных ставок, кредитование, международные финансовые рынки, банковская система.

KIRISH

Aksiyadorlik tijorat banklari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim moliyaviy institutlar hisoblanadi. Ular o'z faoliyati orqali moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlab, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini kreditlash hamda investitsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda yetakchi o'rin egallaydi. So'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida bank xizmatlarining 60–70 foizi onlayn platformalar orqali amalga oshirilmoqda, bu esa moliyaviy vositachilik samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, aksiyadorlik tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining rivojlanganlik darajasi ularning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uni samarali boshqarish korporativ boshqaruv tizimining sifatiga bevosita bog'liqdir. Xususan, xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda bank aktivlarining o'rtacha 65–75 foizi jalb qilingan mablag'lar, jumladan depozitlar hisobiga shakllanadi. O'z mablag'lari esa odatda umumiy kapitalning 10–15 foizini tashkil etib, aksiyadorlar tomonidan kiritilgan investitsiyalar asosida shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, aksiyadorlik tijorat banklarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida tashkil etish resurs bazasining barqarorligini ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish hamda kapitalni samarali jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya sharoitida bank tizimi oldida bir qator murakkab muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, onlayn depozitlar hajmining 20–30 foizgacha bo'lgan darajada tebranishi, raqamli likvidlikni boshqarishdagi qiyinchiliklar, fintex kompaniyalar bilan raqobatning kuchayishi hamda global moliyaviy bozorlardagi o'zgaruvchanlik banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishda risk-menejment, shaffoflik, hisobdorlik va manfaatdor tomonlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Aksiyadorlik tijorat banklarining resurs bazasi asosan o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardan iborat bo'lib, ular korporativ boshqaruv tizimi orqali samarali boshqariladi. O'z mablag'lari bank kapitalining asosini tashkil etib, aksiyadorlar tomonidan raqamli platformalar orqali kiritilgan investitsiyalar hisobiga shakllanadi. Jalb qilingan mablag'lar esa asosan onlayn depozitlar, raqamli kredit liniyalari va innovatsion moliyaviy instrumentlar orqali shakllanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, tijorat banklari resurslarining 60 foizdan ortig'ini aynan depozitlar tashkil etadi, bu esa ularning likvidlik darajasini ta'minlashda asosiy manba hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya korporativ boshqaruv tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Xususan, Big Data texnologiyalari asosida qarorlar qabul qilish, sun'iy intellektdan foydalanish orqali kredit risklarini baholash, kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda real vaqt rejimida likvidlik monitoringini amalga oshirish bank boshqaruvining ajralmas qismiga aylanmoqda. Xalqaro standartlar, jumladan, korporativ boshqaruvning ilg'or tamoyillarini joriy etish orqali banklar o'z faoliyatining shaffofligini oshirib, investorlar va mijozlar ishonchini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya sharoitida aksiyadorlik tijorat banklarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish resurs bazasining barqarorligini ta'minlash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va bank tizimining uzoq muddatli rivojlanishiga erishishda muhim omil hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOT SHARHI

Nobel mukofoti sovrindori Joseph Stiglitzning fikricha, tijorat banklarining barqarorligi bozor iqtisodiyotining samaradorligini belgilaydi. U bank tizimida ishonchni oshirish uchun davlat tartibga solishining ahamiyatini ta'kidlaydi. Monetarizm asoschisi bo'lgan Milton Friedman bank tizimining resurs bazasini kengaytirishda pul-kredit siyosati muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, banklar foiz stavkalarini nazorat qilish orqali o'z aktivlarini samarali boshqarishi kerak. Hyman Minsky moliyaviy barqarorlik nazariyasi doirasida banklarning kreditlash siyosati iqtisodiy inqirozlar bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ortiqcha qarz olish bank tizimini zaiflashtiradi. John Maynard Keynes kredit bozorining o'sishi investitsiyalar va iqtisodiy faollikni oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlagan. Uning fikricha, tijorat banklari iqtisodiy o'sishning asosiy vositachisi hisoblanadi. Paul Krugman bank tizimidagi likvidlik muammolari va moliyaviy vositachilikning ahamiyati haqida yozgan. Uning fikricha, resurs bazasining barqarorligi iqtisodiy turg'unliklarning oldini oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistika manbalari, tijorat banklari hisobotlari va xalqaro moliyaviy tashkilotlar ma'lumotlar bazalaridan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar usuli hamda iqtisodiy-statistik tahlil yordamida qayta ishlanib, banklarning resurs bazasi, likvidlik darajasi va moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleks baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Banklarning resurs bazasini kengaytirish va mustahkamlashda raqamli depozit tizimlarining ahamiyati beqiyosdir. Biroq, raqamli depozitlarning hajmi ko'proq aholining daromad darajasi, ularning raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi va iqtisodiy barqarorlik kabi omillarga bog'liq. Shu bilan birga, tijorat banklari xalqaro raqamli moliyaviy platformalar va fintex tashkilotlardan mablag' jalb qilish orqali o'z resurs bazasini kengaytirishi mumkin. Ammo bu jarayonda valyutalar kursidagi onlayn tebranishlar, global foiz stavkalaridagi farqlar va xalqaro raqamli moliyaviy inqirozlar kabi xavf-xatarlar mavjud.

Raqamli transformatsiya sharoitida aksiyadorlik tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish jarayonida bir qator tizimli muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolar, avvalo, banklarning resurs bazasi barqarorligini ta'minlash va uni samarali boshqarish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, korporativ boshqaruvning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashni taqozo etadi.

Birinchidan, raqamli depozit bazasining noaniqligi aksiyadorlik tijorat banklarida korporativ boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan joylashtirilayotgan onlayn depozitlar bank resurslarining asosiy qismini tashkil etgan bo'lsa-da, iqtisodiy beqarorlik sharoitida mijozlarning raqamli moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi pasayishi depozitlar hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Bu holat korporativ boshqaruv tizimida risklarni oldindan baholash va ularni boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, raqamli likvidlikni boshqarishdagi qiyinchiliklar banklarning operatsion barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Real vaqt rejimida likvidlikni ta'minlash imkoniyatlari cheklangan holatlarda banklar qisqa muddatli majburiyatlarni bajarishda muammolarga duch keladi. Shu bois, korporativ boshqaruv tizimida likvidlikni boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar, jumladan, ilg'or risk-menejment yondashuvlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, xalqaro moliyaviy bozorlar va fintex muhitining ta'siri aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatida sezilarli darajada ortib bormoqda. Global moliyaviy oqimlarning o'zgaruvchanligi, valyuta kurslarining tebranishi, kriptovalyuta bozoridagi beqarorlik hamda xalqaro to'lov tizimlaridagi uzilishlar banklarning moliyaviy barqarorligiga xavf tug'diradi. Bu esa korporativ boshqaruv tizimida strategik qarorlar qabul qilishda shaffoflik va moslashuvchanlikni ta'minlashni talab etadi.

To'rtinchidan, foiz siyosati va raqamli moliyaviy mahsulotlar bilan bog'liq muammolar ham banklar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bank tomonidan foiz stavkalarining oshirilishi tijorat banklari uchun jalb qilinayotgan resurslar qiymatini oshirib, ularning kreditlash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, korporativ boshqaruv doirasida foiz risklarini samarali boshqarish va moliyaviy strategiyalarni optimallashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, aksiyadorlik tijorat banklarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish resurs bazasini mustahkamlash bilan uzviy bog'liq strategik jarayon hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida depozit bazasini kengaytirish, likvidlikni real vaqt rejimida boshqarish, xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilish va risklarni samarali monitoring qilish kabi yo'nalishlar korporativ boshqaruv tizimining ustuvor vazifalariga aylanmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, fintex va raqamli innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, resurslarni diversifikatsiya qilish zarur. Ayniqsa, blokcheyn texnologiyalari, sun'iy intellekt va Big Data asosidagi boshqaruv vositalarini joriy etish orqali banklar faoliyatining shaffofligini oshirish va moliyaviy xavflarni kamaytirish mumkin.

Shuningdek, banklar zamonaviy raqamli boshqaruv infratuzilmasini shakllantirish orqali onlayn risk-menejment tizimlarini rivojlantirishi, kibexavfsizlik choralari kuchaytirishi hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi mumkin. Bu esa o'z navbatida aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, investorlar ishonchini oshirish va bank tizimining umumiy samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida xalqaro tajribani o'rganish, xususan, Qozog'iston Respublikasi bank tizimida raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tajriba asosida aksiyadorlik tijorat banklarida raqamli korporativ boshqaruvni rivojlantirish, xorijiy kapital ishtirokini kengaytirish hamda innovatsion moliyaviy xizmatlarni joriy etish orqali raqobat muhitini kuchaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida aksiyadorlik tijorat banklarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, resurs bazasini kengaytirish va bank tizimining raqamli rivojlanishini jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Qozog'iston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakunida mamlakatda 28 ta tijorat banki va raqamli bank operatsiyalarining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi 7 ta tashkilot faoliyat yuritgan. 2022-yil davomida esa 5 ta tijorat banki o'z faoliyatini to'xtatgan. Xususan, «Kazinvestbank», «Delta Bank» va «Qazaq Banki» faoliyati sud qarorlari asosida to'xtatilgan bo'lsa, «Bank Astana» va «Eksimbank Kazakhstan» AJlarning litsenziyalari Markaziy bank tomonidan qaytarib olingan.

Mazkur holat bank sektorida raqamli transformatsiyaning ahamiyatini ko'rsatadi. Chunki zamonaviy raqamli boshqaruv tizimlari, onlayn monitoring mexanizmlari va blokcheyn asosidagi nazorat platformalaridan foydalanish orqali bunday xavflarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni oshirish hamda banklarning faoliyatini yanada shaffof qilish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Qozog'iston Respublikasi tijorat banklari jamlanma balansi dinamikasi (mln.tenge)

Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Jamlanma balans	18 239 255	23 784 427	25 561 157	24 220 516	25 240 959
Yil yakunida AQSh dollari / tengge kursi	182,35	339,47	333,29	332,33	384,20
AQSh dollarida ifodalangan jamlanma balans	100 023	70 063	76 693	72 881	65 697
Mijozlarga ajratilgan kredit va lizing	10 360 923	13 764 673	13 662 143	11 034 734	11 632 369
Kredit operatsiyala-rining salmog'i, %	56,8	57,9	53,4	45,5	46,1
Mijozlar oldidagi majburiyatlar	11 430 551	15 829 587	17 471 404	16 779 346	17 164 724
Muddatli jamg'armalar	272 278	432 201	261 517	145 665	140 654
Jami depozitlar	11 702 829	16 261 788	17 732 921	16 925 011	17 305 378
Depozitlarsalmog'i, %	64,2	68,4	69,4	69,9	68,6
Depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbat, %	112,9	118,1	129,8	153,4	148,8
Bank kapitali jami	2 359 682	2 494 486	2 844 859	3 091 036	3 017 554
Bank kapitalining balansdagi salmog'i, %	12,9	10,8	11,2	12,7	11,9
Muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	1 215 103	2 100 933	1 778 127	1 321 077	1 665 143

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2024-yil yakuniga kelib Qozog'iston Respublikasi bank sektorida raqamli jamlanma balans 25 240 959 mln. tengeni tashkil etib, bu yil oxiridagi AQSh dollariga nisbatan shakllangan kurs bo'yicha 65 697 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan. Banklarning umumiy balansi 2021-yilga nisbatan 7 001 704 mln. tengega yoki 138,4 foizga o'sgan. Biroq, dollarda ifodalangan balans hajmi 2018-yilga nisbatan 34 326 mln. AQSh dollariga kamaygan. Tahlil davrida jismoniy va yuridik shaxslarning



milliy hamda xorijiy valyutadagi raqamli depozitlari hajmi ortib borgan. Masalan, 2021-yilda bank sektoriga jalb etilgan depozitlar hajmi 11 702 829 mln. tengeni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yil yakunida onlayn depozit hisobvaraqlari qoldig'i 17 305 378 mln. tengega yetgan. Natijada, jamlanma balansdagi depozitlarning ulushi 2018-yildagi 64,2 foizdan 2024-yilda 68,6 foizga oshgan. Shuningdek, tijorat banklarining depozit portfelida xorijiy valyutadagi raqamli omonatlar hajmi ham ko'payish tendensiyasini namoyon etgan. Jumladan, 2024-yil yakunida yuridik shaxslarning AQSh dollarida ochilgan onlayn depozitlari salmog'i 49,3 foizni tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan 5,5 foiz punktga ko'paygan. Biroq, jismoniy shaxslarning raqamli depozitlari bo'yicha aksincha vaziyat kuzatilgan: 2023-yilda AQSh dollarida ochilgan depozitlarning umumiy depozitlardagi ulushi 52,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yil oxiriga kelib 47,4 foizga tushib ketgan, ya'ni 4,8 foiz punktga kamaygan. 2024-yilda yuridik shaxslarning milliy valyutadagi muddatli onlayn depozitlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari 7,1 foizni (2021-yilda 8,0 foiz), jismoniy shaxslarning esa 10,4 foizni (2021-yilda 11,7 foiz) tashkil qilgan. Ushbu raqamlar bank sektorida raqamli transformatsiyaning omonatlar tuzilmasiga va foiz stavkalariga sezilarli ta'sir ko'rsatganini anglatadi.

Bank tizimiga jalb etilgan raqamli depozitlar hajmining oshib borishi tijorat banklarining resurs bazasini nisbatan arzon va uzoq muddatli moliyaviy mablag'lar bilan mustahkamlash imkonini berdi. 2024-yil yakunida yuridik shaxslarga ajratilgan raqamli kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 11,7 foizni tashkil etgan (umumiy hisobda 12,4 foiz bo'lib, 2021-yilga nisbatan 1,2 foiz punktga kamaygan). Jismoniy shaxslarga onlayn kreditlar bo'yicha foiz stavkasi esa 17,2 foizni tashkil etib, 2024-yilda 18,5 foiz, 2021-yilda esa 18,8 foiz bo'lgan va pasayish 0,3 foiz punktini tashkil qilgan. Shu bilan birga, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ko'rsatuvchi asosiy indikatorlardan biri — raqamli depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbat talab darajasida saqlanib qolgan: 2021-yilda 112,9 foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 153,4 foizni, 2024-yilda esa 148,8 foizni tashkil etgan. Tijorat banklarining jamlanma balansidagi xususiy kapital ulushi ham xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan me'yorlarga mos kelgan bo'lib, 2024-yil yakunida 11,9 foizni tashkil etgan.

E'tiborli jihati shundaki, Qozog'iston Respublikasi Markaziy banki aholining vaqtinchalik bo'sh mablag'larini tijorat banklari va boshqa moliyaviy tashkilotlar orqali jalb etish bo'yicha innovatsion qarorlarni ham qabul qilmoqda. Masalan, 2023-yilning may oyidan boshlab aholiga raqamli oltin quymalar savdosi yo'lga qo'yilgan. 2024-yilning noyabridan esa nafaqat tijorat banklari, balki naqd xorijiy valyuta bilan ishlash vakolatiga ega bo'lgan boshqa tashkilotlar ham onlayn oltin savdosida ishtirok etishni boshlagan. 2024-yil yakunida oltin quymalar 5 turda (5, 10, 20, 50 va 100 gramm) elektron savdo tizimlari orqali aholiga taqdim etilgan. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda aholiga jami 151 kilogramm og'irlikdagi 3 962 dona oltin quyma raqamli tranzaksiyalar orqali sotilgan bo'lib, umumiy qiymati 3 mlrd. tengeni tashkil etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida aksiyadorlik tijorat banklarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bank tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yuqorida qayd etilgan muammo va kamchiliklarning bartaraf etilishi istiqbolda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining raqamli resurs bazasini, xususan, depozit portfelini kengaytirish hamda uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, jumladan, korporativ boshqaruvda ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish, risk-menejment tizimini xalqaro talablarga mos ravishda modernizatsiya qilish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu islohotlar bank resurslarining hajmini oshirish, ularni samarali joylashtirish hamda moliyaviy oqimlarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali bank faoliyatining umumiy samaradorligini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarni, jumladan, fintex yechimlari, blokcheyn, sun'iy intellekt va Big Data asosidagi boshqaruv tizimlarini keng joriy etish korporativ boshqaruvning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat banklar faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi, balki moliyaviy xavflarni kamaytirish, operatsion samaradorlikni oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlash imkonini beradi.

Shuningdek, bank tizimining raqamli taraqqiyoti aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, zamonaviy bank xizmatlariga bo'lgan ishonchni kuchaytirish hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va xalq farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, aksiyadorlik tijorat banklarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish orqali bank tizimining raqamli barqarorligini ta'minlash, uning raqobatbardoshligini oshirish hamda global moliyaviy tizimga integratsiyalashuv darajasini kuchaytirish mumkin. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam institutsional asos yaratadi va uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Банковский менеджмент: Учебное пособие / Е.Г. Шершнева, Е.С. Кондюкова.- Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2017.— 748 с
2. Деньги, кредит, банки: Учебник/ коллектив авторов; под ред. Л.П.Кроливецкой. - Москва : КРОНУС, 2019.— 414 с
3. Долан Э. Дж., и др. Деньги, банковские дело и денежно кредитная политика. Пер. с англ. -Москва-Ленинград: 1991.-446 с.
4. Катькало В.С. Эволюция теории стратегического управления. -Высшая школа менеджмента СПбГУ. - 3-е изд.- СПб.: -Издательство «Высшая школа менеджмента»; Издат.дом С.Петербур. -гос.ун-та.-2011.-С.548.
5. Киселев, В. В. Управление банковским капиталом (теория и практика) – М.: Экономика, 1997. – 256 с.
6. Коммерческие банки / Э. Рид, Р. Коттер, Э. Гилл и др. – М: Космополис, 1991. – 501 с.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100